



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 9, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 9, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2026

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ермегов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Рашидов Ойбек Расулович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабалжанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети


|  |    |
|--|----|
| <b>1. Diloram Babajanova</b><br>O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARI:ILM-FAN DARG‘ALARI<br>TARIXDA VA HOZIR.....  | 5  |
| <b>2. Nilufar Dalibayevna Djurayeva</b><br>XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT MASALASIDA SOVETLAR SIYOSATI: MANBALAR<br>TAHLILI VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI.....                                | 13 |
| <b>3. Наргиза Абдурахманова</b><br>ЗАМОНАВИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА АБУЛ БАРАКОТ НАСАФИЙ АСАРЛАРИНИНГ<br>ЎРГАНИЛИШИ.....  | 30 |
| <b>4. Шерзод Таштурсунович Бахранов</b><br>ЎЗБЕКISTОН ССРДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ФАНИНИ РИВОЖЛАНИШИ: ЮТУҚ ВА<br>МУАММОЛАРИ.....  | 37 |
| <b>5. Ixtiyor Voxodir o‘g‘li Voxodirov</b><br>TURKISTON HARBIY OKRUGI TOMONIDAN 1916-YILGI JIZZAX QO‘ZG‘OLONING<br>BOSTIRILISHI VA UNING OQIBATLARI.....                               | 47 |
| <b>6. Наргиза Кенжаева</b><br>ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ПРОСОПОГРАФИК МЕТОДНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ:<br>ПОМИР РУС ТАДҚИҚОТЧИЛАРИНИНГ ЖАМОАВИЙ БИОГРАФИЯСИ (XIX АСР<br>ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ)..... | 53 |
| <b>7. Lola Yusupovna Samatova</b><br>IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDAGI SOVET UCHUVCHI AYOLLAR BO‘LINMASI<br>TO‘G‘RISIDA.....   | 66 |
| <b>8. Ismoil Alimbayevich Nurmetov</b><br>O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI (BRM) AMALGA<br>OSHIRISH STRATEGIYASI.....   | 72 |
| <b>9. Malika Xaydarova Shaxriddin qizi</b><br>AMIR TEMURNING JANGLARDAGI HARBIY MAHORATI.....  | 78 |
| <b>10. Feruza Erkinovna Atajanova</b><br>OLIIY TA‘LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR TENDENSIYALAR TAHLILI.....   | 83 |
| <b>11. Muborak Madrimovna Matyakubova</b><br>XVI-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGI BOZORLARIDA BOZORBOSHI, RAIS, MUHTASIB,<br>SARROFLAR VA DALLOLLARNING FAOLIYATI VA HUQUQIY MAQOMI.....      | 89 |
| <b>12. Анварбек Муродович Омонов, Маъруфжон Нурулиевич Рўзиев</b><br>КЎЛБУЛОҚ МАКОНИ ТОШ ИНДУСТРИЯСИНИНГ ТАҲЛИЛИГА ДОИР<br>(ИЛК ПАЛЕОЛИТ ДАВРИ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА).....              | 94 |



**Ismoil Alimbayevich Nurmetov,**  
PhD, Urganch davlat universiteti dotsenti,  
Ismoilnur1984@gmail.com

## **О`ЗБЕКISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI (BRM) AMALGA OSHIRISH STRATEGIYASI**

**For citation:** Ismoil A. Nurmetov. STRATEGY FOR THE IMPLEMENTATION OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS (SDGS) IN UZBEKISTAN. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 5.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20082806>

### **ANNOTATSIYA**

Maqolada Global ko`rsatkichlar tizimi va yaqin hamkorlik asosida Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) amalga oshirish masalalari yoritilgan. Ekologiya sohasida Iqlim o`zgarishi oqibatlarini yumshatish, unga moslashish masalalariga, ayniqsa, Orol dengizi mintaqasi muammolari hamda suv, er va energetika resurslarini saqlash va ehtiyotkorlik bilan ishlatish, shuningdek, biologik xilma-xillikni saqlash masalalariga alohida e`tibor qaratilgan.

Shuningdek, Yoxannesburg shahrida barqaror rivojlanish umumjahon Sammitda yangi Hamkorlik Tashabbusi halqaro instituti tashkil qilinishi haqida e`lon qilindi. Amalga oshirish global Rejasiga kiritilgan va barqaror rivojlanish bo`yicha submintaqaviy strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga yo`naltirilgan, Markaziy Osiyoning tashabbusi alohida tashkil etuvchi qism hisoblandi.

**Kalit so`zlar:** Rio-de-Janeyro konferensiyasi, BMT, BRM, Markaziy Osiyo, Muvofiqlashtiruvchi kengash, ekologiya, hamkorlik, konvensiya, sammit, iqlim o`zgarishi.

---

**Нурметов Исмаил Алимбаевич,**  
доктор философии (PhD) по истории, доцент  
Ургенчского государственного университета,  
Ismoilnur1984@gmail.com

## **СТРАТЕГИЯ РЕАЛИЗАЦИИ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ (ЦУР) В УЗБЕКИСТАНЕ**

### **АННОТАЦИЯ**

В статье освещаются вопросы реализации Целей устойчивого развития (ЦУР) на основе Системы глобальных показателей и тесного сотрудничества. В сфере экологии особое внимание уделяется вопросам смягчения последствий изменения климата, адаптации к нему, особенно проблемам региона Аральского моря, а также сохранения и рационального использования водных, земельных и энергетических ресурсов, сохранения биоразнообразия.

На Всемирном саммите по устойчивому развитию в Йоханнесбурге также было объявлено о создании нового Международного института партнерских инициатив. Инициатива для Центральной Азии, которая включена в Глобальный план реализации и

направлена на разработку и внедрение субрегиональных стратегий устойчивого развития, была рассмотрена как отдельная составная часть.

**Ключевые слова:** Конференция Рио-де-Жанейро, ООН, ЮНЕП, Центральная Азия, Координационный совет, экология, сотрудничество, конвенция, саммит, изменение климата.

**Ismoil A. Nurmetov,**  
PhD, Associate Professor,  
Urgench State University  
ismoilnur1984@gmail.com

## STRATEGY FOR THE IMPLEMENTATION OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS (SDGS) IN UZBEKISTAN

### ABSTRACT

The article highlights the issues of implementing the Sustainable Development Goals (SDGs) based on the Global Indicator System and close cooperation. In the field of ecology, special attention is paid to issues of mitigating the effects of climate change, adapting to it, especially the problems of the Aral Sea region, as well as the conservation and rational use of water, land and energy resources, and the conservation of biodiversity.

The World Summit on Sustainable Development in Johannesburg also announced the creation of a new International Institute for Partnership Initiatives. The Central Asia initiative, which is included in the Global Implementation Plan and aims to develop and implement subregional sustainable development strategies, was considered a separate component.

**Index Terms:** Conference Rio de Janeiro, UNO, SDG, Central Asia, Coordinating Council, Ecology, Cooperation, Convention, Summit, Climate Change.

### **Kirish (Introduction):**

Barqaror rivojlanish - deganda hozirgi avlodlar hayotiy ehtiyojlarini kelgusi avlodlar ehtiyojlarini qondirishga zarar etkazmasdan amalga oshiriladigan rivojlanish tushuniladi. Barqaror rivojlanish mazmun bo'yicha ekologik rivojlanish tushunchasiga juda ham yaqindir.

1992-yilning 3 - 14 -iyun kunlarida Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda 179 davlatlarning rahbarlari, hukumat vakillari, ekspertlar, nodavlat tashkilotlari, ilmiy va ishbilarmon doiralar vakillari qatnashdilar. Rio-de-Janeyro konferensiyasi O'zbekiston uchun global ekologik muvozanatga erishishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha muhim turtki bo'lib, hamda ushbu anjumanda uzoq muddatli iqtisodiy taroqqiyotga erishishni ta'minlashning yagona yo'li sifatida uning atrof-muhit bilan bog'liq holda amalga oshirilishi belgilab olindi.

2000-yilning 6-8-sentyabr kunlari Nyu-York shahrida BMTning Ming yillik sammiti bo'lib o'tdi va unda "Ming yillik Deklaratsiyasi" qabul qilindi[1]. Sammit ishlarining yakuniy natijasi sifatida rivojlanish yo'lidagi jarayonlarni o'lchash uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi "Ming yillik Rivojlanish Maqsadlari" bir ovozdan ma'qullandi. Bu hujjatga binoan 2015-yilga kelib qashshoqlikni bartaraf qilish, odamlarning bilim darajasini ko'tarish, atrof-muhitni himoya qilish, inson huquq va erkinliklari tengligini ta'minlash, kasalliklarga qarshi kurashish, tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash borasida erishish kerak bo'lgan vazifalarga oid majburiyatlar belgilandi.

2002-yilda Yoxannesburg shahrida barqaror rivojlanish umumjahon sammiti bo'lib o'tdi va ushbu sammitda Siyosiy Deklaratsiya va Sammit qarorlarini aniq majburiyatlari va bajarilish muddatlari belgilangan holda amalga oshirish bo'yicha Rejasi muhokama qilinib, qabul qilindi. Sammitda yangi Hamkorlik Tashabbusi halqaro instituti tashkil qilinishi haqida e'lon qilindi. Amalga oshirish global Rejasiga kiritilgan va barqaror rivojlanish bo'yicha submintaqaviy strategiyasini ishlab chiqish va amlga oshirishga yo'naltirilgan, Markaziy Osiyoning tashabbusi alohida tashkil etuvchi qism hisoblandi.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review):**

Mavzu yuzasidan mustaqillik yillarida O'zbekistonda bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ekologiya va atrof-muhinni muhofaza qilishning ijtimoiy-siyosiy jihatlariga bag'ishlangan qator ishlarda esa mamlakatda mavjud ekologik vaziyat, ekologik muammolarning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish omillari xususida fikt yuritilishi bilan birga, davlat ekologik siyosatining nashqi siyosiy aspektlari ochib berilgan. Bunday ishlarga A.Berdimuratova, G.Abdullayeva, Sh.Fayziyev, E.Usmanov, B.Bekimmetov, S.Davletov, B.Omonov, S.Turayeva va boshqalar o'zlarining tadqiqotlari doirasida respublikadagi ayrim ijtimoiy-ekologik masalalarga ham to'xtalib o'tganlar.

#### **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology):**

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Tabiatni muhofaza etish turli xil vosita va usullar yordamida amalga oshiriladi. Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari natijasida paydo bo'layotgan global, mintaqaviy va milliy ekologik xavflardan davlatni, jamiyatni va har bir fuqaroni himoya qilishga yo'naltirilgan O'zbekistonning milliy strategiyasini ishlab chiqish hamda bu xavflarning echimini topish uchun atrof-muhit va aholi salomatligi muhofazasi bo'yicha amaldagi qonunchilikni yanada takomillashtirish va har bir fuqorolarda ekologik madaniyatni oshirish maqsadida, ekologik ta'limni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

#### **Tahlil va natijalar (Analysis and results):**

BMT Bosh assambleyasining 2010-yil 22-sentyabrdagi 65/1-sonli "Va'dani bajarish: Ming yillik Deklaratsiyasida ifodalangan rivojlanish sohasidagi maqsadlarga erishish uchun birlashish" Rezolyutsiyasida 2015-yilga qadar rivojlanish sohasidagi maqsadlarga erishishga ko'maklashishda milliy parlamentlar roli alohida qayd qilindi[2].

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng ko'p vaqt o'tmay, 1992-yilda Birlashgan Millatlar tashkiloti a'zosi bo'ldi va uning bir qator dasturlari hamda maxsus tashkilotlari bilan hamkorlik qila boshladi, jumladan, BMTning atrof-muhit dasturi (YUNEP), BMTning taraqqiyot dasturi (BMTTD), BMTning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO), Xalqaro meteorologik tashkiloti (UMT), Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (BSST), BMTning sanoat rivojlanish bo'yicha (YUNIDO) hamda unig ikki mintaqaviy tashkiloti: BMTning Evropa iqtisodiy komissiyasi (BMT EIK), Tinch okeani va Osiyo mintaqasi uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (ESKATO).

Ming yillik maqsadlari yakuni ko'rib chiqilgan 2015-yilning sentyabrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining navbatdagi tarixiy sammitida "Barqaror rivojlanish sohasidagi Global kun tartibi" bo'yicha 70-son rezolyutsiyasi qabul qilindi va unda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarda barqaror rivojlanishni ko'zda tutuvchi 2030-yilgacha erishilishi lozim bo'lgan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlari va ularga bog'liq bo'lgan 169 ta vazifa va 232 ta ko'rsatkich belgilab olingan deklaratsiya qabul qilindi[3].

BRM dasturi 17 ta global maqsadni o'z ichiga oladi: 1) qashshoqlikni yo'qotish; 2) ochlikni tugatish; 3) sog'lik va farovonlik; 4) sifatli ta'lim; 5) gender tengligi; 6) toza suv va sanitariya; 7) arzon va toza energiya; 8) munosib ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy o'sish; 9) sanoatlashtirish, innovatsiyalar, infratuzilma; 10) tengsizlikni kamaytirish; 11) barqaror shaharlar va qulay yashash joylarini yaratish; 12) mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish; 13) iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish; 14) dengiz ekotizimlarini asrash; 15) quruqlikdagi ekotizimlarni asrash; 16) tinchlik, adolat va samarali boshqaruv; 17) barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik.

2015-yilda O'zbekiston hukumati 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida global kun tartibini amalga oshirish bo'yicha majburiyatlarni qabul qildi[4].

2018-yilning oktyabr oyida barqaror rivojlanish sohasida 16 ta Milliy maqsad va 125 ta vazifa qabul qilindi. Hukumat darajasida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari boshchiligidagi idoralararo Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi va milliy maqsadlarni amalga oshirish bo'yicha tegishli yo'l xaritasi qabul qilindi[5].

Global ko'rsatkichlar tizimi va yaqin hamkorlik asosida barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) amalga oshirish uchun mas'ul vazirlik va idoralar, shuningdek, BMT agentliklari bilan

BRMning 200 ga yaqin ko`rsatkichidan milliy ro`yxat tuzildi. Unda O`zbekiston uchun dolzarb deb topilgan va mamlakatning milliy ustuvor yo`nalishlarini aks ettiruvchi ko`rsatkichlar o`rin olgan.

Bugungi kunda hukumat barqaror rivojlanish maqsadlarini milliy rivojlanish strategiyasi va dasturlariga, jumladan, kompleks, tarmoq va mintaqaga integratsiya qilish uchun ish olib bormoqda. Xususan, bugungi kunda 125 milliy maqsadning 105 tasi hukumatning 190 dan ortiq me`yoriy, dasturiy va strategik hujjatlarida qamrab olingan. Yangi tashkil etilgan BRM monitoringi bo`yicha parlament komissiyasi, shuningdek fuqarolik jamiyati, yoshlar va etakchi milliy nodavlat notijorat tashkilotlari BRMni ilgari surish ishlariga, shu jumladan, O`zbekistonning ushbu birinchi ixtiyoriy milliy sharhini tayyorlash va muhokama qilishda faol ishtirok etmoqda.

O`zbekistonda BRMning amalga oshirilishi 2017-2021-yillarga mo`ljallangan milliy harakatlar strategiyasi doirasida keng ko`lamli islohotlarga to`g`ri keldi. Mazkur strategiya va uning beshta ustuvor yo`nalishi tegishli xalqaro tashkilotlar mutaxassisleri tomonidan e`tirof etildi. Milliy BRMlarni kompleks, tarmoq va mintaqaviy rivojlanish strategiyasi va dasturlariga, shu jumladan, O`zbekiston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasini 2030-yilgacha ishlab chiqish bo`yicha ishlar olib borilmoqda. Hukumat islohotlarning natijadorligini 23 ta global indeks orqali kuzatib boradi[6].

Bu borada milliy maqsadlarga erishishda O`zbekiston bozor iqtisodiyotini mustahkamlash uchun liberallashtirish va tarkibiy islohotlarga tayanadi. So`nggi yillarda valyuta va soliq islohotlari jadal amalga oshirildi, agrar islohotlar boshlandi. Biznes-muhitni yaxshilash, tadbirkorlikni rag`batlantirish, yoshlar va ayollarni barqaror ish bilan ta`minlash, shuningdek, investitsiyalar va innovatsiyalarni jalb qilish bo`yicha choralar ko`rilmoqda. Bosqichma-bosqich tashqi savdoni liberallashtirish va Jahon Savdo tashkilotiga qo`shilish bo`yicha ishlar olib borilmoqda.

Sog`liqni saqlash sohasini yaxshilash bo`yicha chora-tadbirlar ko`rilmoqda, moliyalashtirish va sug`urta tizimini takomillashtirish, xususiy investitsiyalarni rag`batlantirish, tibbiy kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek, tibbiyot fanini rivojlantirish va “elektron sog`liqni saqlash” tizimini keng joriy etish orqali xizmatlarning sifatini oshirishga e`tibor qaratilmoqda.

Ta`lim sohasida sifat va samaradorlikni oshirish, iqtisodiyot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kadrlar tayyorlash tizimining moslashuvchanligini ta`minlash, shuningdek, investitsiyalarni, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik asosida sohani rivojlantirish ko`zda tutilgan.

O`zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida “Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun” degan bir tamoyil mujassam bo`lib, u BRM asosiy tamoyili “hech kimni ortda qoldirmaslik” tamoyiliga hamohangdir. BRM qabul qilingan paytdan boshlab O`zbekiston inson huquqlarini himoya qilishning huquqiy va amaliy mexanizmlarini takomillashtirish, qonun ustuvorligi tamoyilini mustahkamlash va sud-huquq tizimini isloh qilishda salmoqli yutuqlarga erishdi. Ma`muriy islohotlar, elektron hukumat takomillashtirilmoqda, OAV va blogerlarning mustaqilligini ta`minlash borasida islohotlar amalga oshirilmoqda[9].

Mamlakat ayollarning rolini mustahkamlash va huquqlarini himoya qilishga katta e`tibor qaratilmoqda. Yaqinda gender tengligi va ayollarni zo`ravonlikdan himoya qilish to`g`risidagi qonunlar qabul qilindi, parlamentdagi ayollarning ulushi ikki barobarga oshdi (32% gacha), ayollar ham davlat va mahalliy hokimiyatning barcha darajalarida rahbarlik lavozimlariga o`tmoqda.

Hamkorlik va yaxshi qo`shnichilik ruhida O`zbekiston ochiqlik siyosatiga alohida e`tibor qaratilmoqda. So`nggi yillarda mamlakat chegaralarni ochdi va hamkorlik aloqalari rivojlanmoqda. BMT agentliklari va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik mustahkamlanmoqda. Dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlari bilan viza rejimini liberallashtirish natijasida sayyohlarning yillik oqimi 2019-yilda 6,7 milliondan oshdi (2017-yilda 2,5 million).

Ekologiya sohasida Iqlim o`zgarishi oqibatlarini yumshatish, unga moslashish masalalariga, ayniqsa, Orol dengizi mintaqasi muammolari hamda suv, er va energetika resurslarini saqlash va ehtiyotkorlik bilan ishlatish, shuningdek, biologik xilma-xillikni saqlash masalalariga alohida e`tibor qaratilmoqda[10].

So`nggi yillarda O`zbekiston rahbariyati xalqaro ahamiyatga ega tashabbuslari bilan BMT doirasidagi hamkorlikka yangicha mazmun-mohiyat bag`ishlab, ikki tomonlama aloqalarni jadal mustahkamlab bormoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017-yil 19-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so`zlagan nutqida: “Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta`minlash bilan bog`liq muammolar to`g`risida so`z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o`tolmaymiz... O`zbekiston BMTning preventiv diplomatiya bo`yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to`g`risidagi konvensiyalar loyihalarini qo`llab-quvvatlaydi”, - deya alohida ta`kidlagandi[7].

2018-yil 22-iyun kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta`minlash bo`yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasi qabul qilindi[8]. Loyihasi O`zbekiston tomonidan Markaziy Osiyodagi qo`shni mamlakatlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ushbu hujjatni BMTga a`zo barcha davlatlar bir ovozdan qo`llab-quvvatladi.

#### **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations):**

2020-yil sentyabr oyida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasi sessiyasining onlayn shaklda o`tkazilgan 75-sessiyasida nutq so`zlab, mintaqaviy va global miqyosda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, barqaror taraqqiyotni ta`minlash, inson huquqlariga rioya etishni qo`llab-quvvatlash, konstruktiv muloqotni kengaytirish, shuningdek, iqlim o`zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi muammosi, qashshoqlikka barham berish va kambag`allikni qisqartirish kabi dolzarb masalalar yuzasidan bir qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Bu tashabbuslar O`zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi islohotlari va izchil amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasining eng muhim yo`nalishlari ifodasi bo`lib, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga to`liq mos keladi.

#### **Iqtiboslar/Сноски/References:**

1. Декларация тысячелетия ООН от 08.09.2000 г. ([www.undp.org.](http://www.undp.org/)) (UN Millennium Declaration of September 8, 2000 ([www.undp.org.](http://www.undp.org/)))

2. Ўзбекистон: Амалий қўлланма. Барқарор ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг ва инсон тараққиёти принципларини амалга оширишнинг парламент томонидан таъминланиши, Тошкент, 2011. – Б.13. (Uzbekistan: Practical Guide. Ensuring Sustainable Socio-Economic Development and the Implementation of Human Development Principles by Parliament, Tashkent, 2011. – P.13).

3.Резолюция, принятая Генеральной Ассамблеей 25 сентября 2015 года // [www.undocs.org/ru/A/RES/70/1](http://www.undocs.org/ru/A/RES/70/1) Resolution adopted by the General Assembly on 25 September 2015 // [www.undocs.org/ru/A/RES/70/1](http://www.undocs.org/ru/A/RES/70/1)

4.ДНО 2020: О реализации повестки дня до 2030 года в области устойчиваго развития. Узбекистан. Ташкент, 2020. – С.3. (Uzbekistan DNO 2020. On the implementation of the 2030 Agenda for Sustainable Development. Tashkent, 2020. – P. 3).

5.Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.10.2018 й., 09/18/841/2081-сон (National database of legal documents, 23.10.2018, No. 09/18/841/2081)

6.Узбекистан ДНО 2020. О реализации повестки дня до 2030 года в области устойчиваго развития. Ташкент, 2020. – С.4. (Uzbekistan DNO 2020. On the implementation of the 2030 Agenda for Sustainable Development. Tashkent, 2020. – P. 4.)

7.Мирзиёев Ш.М. БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқ. 20.09.2017 й. // Халқ сўзи, 2017 йил 21 сентябрь. (Mirziyoyev Sh.M. Speech at the 72nd session of the UN General Assembly. 20.09.2017 // People's Word, September 21, 2017.)

8.Новости ООН. 22.0.2018.//[www.news.un.org/ru/story/2018/06/1333022](http://www.news.un.org/ru/story/2018/06/1333022) (UN News. 22.0.2018.//[www.news.un.org/ru/story/2018/06/1333022](http://www.news.un.org/ru/story/2018/06/1333022))

9. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2023-yil. (Constitution of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, 2023).

10. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida” (1993-yil 6-may). // [www.lex.uz](http://www.lex.uz) (Law of the Republic of Uzbekistan. “On Water and Water Use” (May 6, 1993). // [www.lex.uz](http://www.lex.uz))

11. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida” (1996-yil 27-dekabr). // [www.lex.uz](http://www.lex.uz). (Law of the Republic of Uzbekistan. “On the Protection of Atmospheric Air” (December 27, 1996). // [www.lex.uz](http://www.lex.uz))

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000